

3. Курилова С.Ю. Формирование коммуникативной компетентности старшеклассников в учебной проектной деятельности: Дисс... канд. пед. наук. – Владикавказ, 2011. – 224 с.

4. Левин В.А. Образовательная среда: от моделирования к проектированию. – М.: Смысл, 2001. – 365 с.

5. Леонтьев А.Н. Избранные психологические произведения: В 2т. // Т.1. М.: Педагогика, 1983. – 68 с.

MAHALLIY KORXONALARNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI

Rahmonov Javlonbek Muxiddin o‘g‘li

Farg‘ona Politexnika Instituti 4 bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: **Uzganbayeva Dilnoza Toxtasinovna**

Farg‘ona politexnika instituti assistenti

Email: dilnoza.uzganbayeva@ferpi.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada o‘shida korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, milliy tovarlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta‘minlaydigan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish, eksport faoliyatini soddalashtirish va erkinlashtirish, eksport tuzilmasini diversifikatsiya qilish, eksportga ixtisoslashgan qo‘shma korxonalarni barpo etish, iqtisodiyot tarmoqlarining eksport salohiyatini kengaytirish, eksportni kengaytirishga qaratilgan strategiyani faol qo‘llash bilan bir qatorda importning salmog‘ini qisqartirishga qaratilgan ishlarni jadal olib borish zarur.

Kalit so‘zlar: tashqi iqtisodiy faoliyat, tashqi bozorlar, marketing, marketing muhiti, raqobotbardoshlik, samaradorlik.

Abstract. In this article, the development of the country's economy further emphasizes the importance of enhancing the external economic activities of enterprises. To achieve this, it is necessary to actively engage in the production of new types of products that ensure the competitiveness of domestic goods in foreign markets, simplify and facilitate export activities, diversify the export structure, promote the development of additional enterprises specializing in exports, expand the export capabilities of economic sectors, and actively implement a strategy aimed at expanding exports while simultaneously reducing imports.

Key words: Country's economy, external economic activities, products, domestic goods, foreign markets, export, economic sectors, import.

Аннотация. В этой статье подчеркивается важность развития внешнеэкономической деятельности предприятий для дальнейшего развития

экономике нашей страны. Для достижения этой цели необходимо активно производить новые виды продукции, обеспечивающие конкурентоспособность отечественных товаров на внешних рынках, упрощать и стимулировать экспортные операции, диверсифицировать экспортную структуру, развивать дополнительные предприятия, специализирующиеся на экспорте, расширять экспортные возможности экономических секторов и активно осуществлять стратегию, направленную на расширение экспорта при одновременном сокращении импорта.

ключевые слова: Экономика страны, внешне экономическая деятельность, Продукты, Внутренние товары, Зарубежные рынки, Экспорт, Экономические сектора, Импорт

KIRISH

Tashqi iqtisodiy faoliyat bugungi kunda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi vaqtda tashqi bozorlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqaga ega bo'lmagan sanoat deyarli yo'q. Bunday sharoitda tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tashqi bozorlarda samarali faoliyat yuritish uchun tashqi bozorlarning rivojlanish prognozlari, tebranihlari va atrofdagi marketing muhitining xususiyatlarini hisobga olgan holda turli marketing usullaridan juda moslashuvchan foydalanish kerak. Korxonalarining tashqi bozorlarga chiqishining asosiy usuli xalqaro bozorlardir. Chunki yirik korxonalarining ko'pchiligida daromadlarining yarmi chet elda amalga oshirilgan savdolar hisobiga shakllanmoqda. Tashqi savdodagi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik ko'p jihatdan jahon bozoridagi raqobatbardoshlik va tovar taklifi bilan bog'liq. Bu esa xalqaro marketing siyosatining strategiyasi raqobatdosh ustunlikka erishish muhimligini tushuntiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda davlat idoralarining, yuridik va jismoniy shaxslarining boshqa xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik o'rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlari tushuniladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari:

- tashqi savdo faoliyati;
- xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;
- chet el investitsiyalarini jalb qilish.

Tadqiqot natijalari:

Tashqi savdo faoliyati - bu mahsulotlar, mehnat, xizmatlar, axborotlar va intellektual soha natijalari bo'yicha dunyo miqyosida tadbirkorlik faoliyatidir. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni, xizmatlarni eksport va import qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Hozirgi sharoitda globallashuv jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo o‘shining muhim rag‘batlantiruvchi omiliga aylandi. U shaxsiy muloqot hamda inson shaxsining ijodiy salohiyati namoyon bo‘lishi uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. U ob‘ektiv xarakterga ega bo‘lib, sayyorada inson hamda tabiiy resurslarning notekis taqsimlanishi bilan asoslanadiki, ulardan yanada unumli foydalanish uchun xalqaro kooperatsiyani chuqurlashtirish zaruriyatini belgilab beradi.

1-jadval.

N	Davlat	YaIM (AQSH\$million) 2023
	Jahon	101 trln 560 mlrd 901 mln \$
1	<u>Amerika Qo‘shma Shtatlari</u>	25 trln 035 mlrd 164 mln \$
—	<u>Yevropa Ittifoqi</u>	15,961,546 mlrd \$
2	Xitoy	18 trln 321 mlrd 197 mln \$
3	Yaponiya	4 trln 300 mlrd 621 mln \$
4	Germaniya	4 trln 031 mlrd 149 mln \$
5	Hindiston	3 trln 468 mlrd 566 mln \$
6	BAA	3 trln 198 mlrd 470 mln \$
7	Fransiya	2 trln 778 mlrd 090 mln \$
8	Kanada	2 trln 200 mlrd 352 mln \$
9	Rossiya	2 trln 133 mlrd 092 mln \$
10	Italiya	1 trln 996 mlrd 934 mln \$

Fitch Ratings 2023-yil uchun global yalpi ichki mahsulot o‘shishi prognozini 1,7 foizdan 1,4 foizga tushirdi. Bu haqda “Daryo”ga xalqaro reyting agentligining press-relizidan ma’lum bo‘ldi. AQSH iqtisodiyoti uchun 2023-yilga mo‘ljallangan o‘shish prognozini 0,5 foizdan 0,2 foizgacha pasaytirdi, chunki mamlakatda pul-kredit siyosatining keskinlashuv sur'ati oshmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni mamlakat uchun zarur va ustuvorligini quyidagi misollar bilan ifodalash mumkin:

- Mamlakatning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash;
- Eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

-Eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, xom ashyoni qayta ishlash negizida tayyor yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxonalarni rivojlantirish;

-Import tovarlarni mahalliyashtirish evaziga import salmog‘ini qisqartishga qaratilga chora tadbirlarni amalga oshirish;

-Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo‘jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o‘rnatishda, o‘z mahsulotini chet ellarda sotishda ko‘proq erkinlik berish;

-Xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag‘lar tarzidagi sarmoyalarni respublika iqtisodiyotiga keng ko‘lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

-Xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisobot sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish. Tashqi iqtisodiy faoliyatning mana shu va boshqa yo‘nalishlarini amalga oshirish O‘zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotida yana ham yuqori o‘rin egallash imkonini beradi. Iqtisodiyot uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning ahamiyati. Tashqi iqtisodiy faoliyat iqtisodiyotning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, chunki u mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirishga, resurslardan samarali foydalanishga, tovar va xizmatlar sifatini oshirishga, shuningdek aholi bandligi va daromadlari darajasining oshishiga imkon beradi. Bundan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat korxonalariga yangi bozorlar va texnologiyalarga kirish imkonini beradi, bu esa mahsulot sifati va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat xorijdan investitsiyalarni va texnologiyalarni jalb qilish manbai bo‘lib, iqtisodiy o‘sish va taraqqiyotga xizmat qiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat – zamonaviy iqtisodiyotning bir qismi bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish uchun davlat tomonidan boshqarish va tartibga solishni talab qiladi. JSTga a‘zo bo‘lish tabiatan murakkab bo‘lib, iqtisodiyotning barcha sohalariga ta‘sir qiladi va nafaqat mamlakatning tashqi savdo rejimiga (bojxona stavkalari, texnik reglament, sanitariya va fitosanitariya tadbirlari va boshqalar), qishloq xo‘jaligi (qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash), iqtisodiyot, narxlarni tartibga solish va boshqalar), intellektual mulk, xizmatlar (chet el kompaniyalari xizmatlari), davlat buyurtmalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va boshqalarni tartibga solishga ham o‘zgarishlar kiritadi.

Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan mamlakatimizning asosiy savdo sheriklari, O‘zbekistonni jahon savdosiga yanada ochiqroq qo‘shilishini qo‘llab-quvvatlaydi va O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayoniga har tomonlama yordam beradi. Xususan, Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a‘zo bo‘lish jarayonini moliyalashtirish uchun 5 million yevro miqdorida grant ajratdi. Tomonlar o‘rtasidagi bitim 2019-yil 11-noyabrda Bryusselda imzolangan va Jahon

savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida, shu jumladan, zarur hujjatlarni tayyorlashda, o'zbekistonlik mutaxassislarning Jahon savdo tashkiloti shartnomalari bo'yicha bilimlarini oshirishda O'zbekistonga yordam ko'rsatishni nazarda tutadi.

Mamlakatlarning Jahon savdo tashkiloti ga a'zo bo'lishi ushbu davlatlardagi iqtisodiy rivojlanish hamda mamlakatdagi monopoliyani bartaraf etishning asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish uchun ariza topshirganiga 25 yildan oshiqroq bo'lgan bo'lsa-da, haligacha ushbu jarayon davom etmoqda. Tarixga nazar soladigan bo'lsak, boshqa mamlakatlarni Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi 4-15 yilni tashkil etadi. Shu boisdan, O'zbekistonning ushbu mamlakatga a'zo bo'lishiga to'sqinlik qilib kelayotgan muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan aniq choratadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Jahon savdo tashkilotining o'ziga xos xususiyati shundaki, tashkilot o'z a'zo davlatlarining savdo amaliyotini bosqichma-bosqich erkinlashtirish, raqobat va mamlakatlar o'rtasidagi savdo almashinuvining samaradorligi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratish orqali savdoni rivojlantiradi.

Korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati - bu xalqaro ishlab chiqarish integratsiyasi va kooperatsiyasi, tovar va xizmatlar eksporti va importi, tashqi bozorga chiqish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat sohasi. Korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy shakllari tashqi savdo faoliyati va ishlab chiqarishning xalqaro kooperatsiyasi hisoblanadi. Korxonalar uchun iqtisodiy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etishda murakkab bo'lgan jarayon - bu kuchli raqobat sharoitida faoliyat yuritishdir. Shuning uchun iqtisodiyot tarmog'idagi jami ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlari, shu bilan birga xizmat ko'rsatish sohasida ham raqobatbardosh muhitni hosil qilish, jahonda ro'y berayotgan kuchli raqobat sharoitida ularning faoliyatini takomillashtirish, diversifikatsiya qilish, yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, moliyaviy jozibadorlikni oshirish bilan chet el investitsiyalarini jalb qilish, jahon tajribasidan kelib chiqqan holda yangicha boshqaruv usullarini qo'llash lozim bo'ladi. Yana shuni ta'kidlash jozki mavjud hom ashyo zaxiralaridan foydalanib yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ushbu mahsulotlarni tashqi bozorlarda sotish, buning natijasida mamlakatga eksportdan valyuta tushumini bir necha barobarga oshirish zarur. Tashqi iqtisodiy faoliyatda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar sifatini muntazam ravishda yaxshilab borish korxonaning muhim siyosati va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatdir. Bu vaziyatning tinmay amalga oshirilib borishi moddiy-texnika bazasi yaratilishiga munosib hissa qo'shish demakdir. Yuqori sifat, mehnat va moddiy resurslarni tejash, eksport imkoniyatlarini oshirish, korxonaning pirovard maqsadi bo'lishi lozimdir. Undan tashqari korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini moliyaviy ta'minlashning mexanizmini qo'llash natijasida quyidagi imkoniyatlarni ta'minlash muhimdir.

Xususan:

- amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy operatsiyalar samaradorlik darajasining yuqori saviyada bo'lishi;

- ixtiyoridagi moliyaviy resurslarni nazorat qilish;

- tashqi savdo bitimlari va pul majburiyatlarining mos keluvchi shaklda va belgilangan muddatda amaldagi milliy qonunchilik me'yorlari va xalqaro bank qoidalari rioya qilish asosida bajarishi

- innovatsion strategiyalar asosida rivojlanish, ishlab chiqarishni doimiy modernizatsiya qilish, samarali investitsion va innovatsion siyosat yuritish salohiyati. Tashqi iqtisodiy faoliyatni mamlakat uchun zarur va ustuvorligini quyidagi misollar bilan ifodalash mumkin:

- mamlakatning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash;

- eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish;

- eksport imkoniyatini kengaytirish, jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, xom ashyoni qayta ishlash negizida tayyor yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini rivojlantirish;

- import tovarlarni mahalliyashtirish evaziga import salmog'ini qisqartirishga qaratilgan chora tadbirlarni amalga oshirish;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish, xo'jalik ishlarini yurituvchi subyektlarga xorijiy sheriklar bilan bevosita aloqalar o'rnatishda, o'z mahsulotini chet ellarda sotishda ko'proq erkinlik berish;

- xorijiy sarmoyalarni, asosan bevosita kapital mablag'lar tarzidagi sarmoyalarni Respublika iqtisodiyotiga keng ko'lamda jalb etish uchun zarur huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy hamda boshqa shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

- xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy faoliyat, bank tizimi, hisob-kitob va statistik hisobot sohasida malakali kadrlar tayyorlashni tashkil qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning mana shu va boshqa yo'nalishlarini amalga oshirish O'zbekiston iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotida yana ham yuqori o'rin egallash imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishning afzalliklari va kamchiliklari.

Afzalliklari:

- Ehtiyotkorlik: Tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish, kompaniyangizni yangi bozorlarga kengaytirishga yordam beradi.

- Kafolat: Xalqaro bozorlarda ehtiyojlar uchun kafolat berish kompaniyaning xalqaro darajadagi rivojlanishini ta'minlaydi.

- Innovatsiyalar va yangiliklar: Tashqi bozorlarda ishtirok etish, yangiliklar va innovatsiyalar o'rganishingizga imkon beradi.

- Yuridik himoya: Xalqaro qonunlarni tushunish va ularni amalga oshirish, shuningdek, muammolar paydo bo'lganda o'z mijozlarini himoya qilishi mumkin.

Kamchiliklari:

-Moliyaviy risklar: Xaridorlarning qarzdorlik holatiga qarshi tashqi bozorlarda yuksak moliyaviy risklar mavjud.

-Tarif rejaları va import tolashlar: Tarif rejaları va import tolashlari tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etuvchi kompaniyalar uchun muammolar yaratishi mumkin.

-Ta'sirchan bozor sharoitlari va siyosiy kutilmalar: Tashqi bozorda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniya uchun ta'sirchan bozor sharoitlari va siyosiy kutilmalar kamchilik hosil qila oladi.

-Kultura va til farqliliklari: Xalqaro bozorda faoliyat ko'rsatuvchi kompaniya uchun kultura va til farqliliklar muammolarni yuzaga kelishi mumkin.

Bu afzalliklar va kamchiliklar, kompaniyalar uchun tashqi bozorlarda ishtirok etishni rag'batlantiradigan va qattiq monitoring qilinishi kerak bo'lgan muhim faktorlar. Raqobatbardoshlik va xavf-xatarlar, to'g'ri strategiya va boshqaruvning muhim qismi sifatida tushunilishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy belgilariga quyidagilar kiradi:

-Xalqaro xarakter: Tashqi iqtisodiy faoliyat ko'plab mamlakatlarni qamrab oladi va qonunchilik, madaniyat va an'analardagi farqlarni hisobga olishni talab qiladi.

-Bojxona tartib-qoidalari: Tashqi iqtisodiy faoliyat hujjatlarni rasmiylashtirish, bojxona to'lovlarini to'lash, antidemping bojlarini qo'llash va boshqa bojxona choralari bilan bog'liq.

-Valyuta risklari: Tashqi iqtisodiy faoliyat valyuta o'zgarishiga duch kelishi mumkin va ularni minimallashtirish uchun vositalardan foydalanishni talab qiladi.

-Murakkablik: Tashqi iqtisodiy faoliyat bu muvaffaqiyatli bo'lish uchun jiddiy tayyorgarlik va tahlilni talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali biznes sohasi.

-Bozorga kirishdagi qiyinchiliklar: Ba'zi mamlakatlar bojxona to'siqlarini qo'yishi mumkin, bu esa boshqa mamlakatlar bozorlariga kirishni qiyinlashtiradi va ularni bartaraf etish uchun maxsus bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

-Moslashuv zarurati: Muvaffaqiyatli tashqi savdo boshqa mamlakatlarning tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlari kabi ko'plab omillarni hisobga olishni talab qiladi, bu esa qo'shimcha tayyorgarlik va moslashishni talab qilishi mumkin.

-Murakkablik: Tashqi iqtisodiy faoliyat bu muvaffaqiyatli bo'lish uchun jiddiy tayyorgarlik va tahlilni talab qiladigan murakkab va ko'p qirrali biznes sohasi.

-Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:

-Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash. Davlat o'z bozorini mahalliy ishlab chiqaruvchilarni siqib chiqarishi mumkin bo'lgan arzon import tovarlaridan himoya qiladi, shuningdek, strategik ahamiyatga ega tovarlarning eksportini nazorat qiladi.

-Xalqaro aloqalarni mustahkamlash. Davlat tovarlar va xizmatlar eksportini rag'batlantiradi, bu boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi.

-Iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish. Davlat mamlakatimizda ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlab, eksportni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun shart-sharoit yaratmoqda.

-Bozorda turli xil tovarlar va xizmatlar. Davlat import qilinadigan tovarlar sifatini nazorat qiladi, bu esa bozorda tovar va xizmatlar sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa

Iqtisodiy rivojlanish darajasidan qat'iy nazar, dunyodagi hech bir mamlakat jahon iqtisodiyotidan tashqaridagi boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarisiz rivojlanishi mumkin emas. Davlatning milliy daromadini oshirish potensialiga ko'ra chet el valyutasidagi daromadlarning o'sishi asosan eksport ulushining o'sishi bilan bog'liqdir. Mavjud iqtisodiy sharoitda davlat, korxonalar, vositachilik tuzilmalari jalb etilayotgan bu faoliyat moliyaviy holatini yaxshilashga imkon beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat ko'pgina kompaniyalarning, ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan kompaniyalarning muhim tarkibiy qismidir. Muvaffaqiyatli tashqi iqtisodiy faoliyat nafaqat bojxona rasmiylashtiruvi tartib-qoidalarini yaxshi bilish, balki qonunchilikdagi o'zgarishlarni kuzatish, malakali kadrlarga ega bo'lish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf va to'siqlarga tayyorlanishni ham talab qiladi. Eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, Soliq yuklari va Bojxona bojlarini kamaytirib yangillik yaratib berishi zarur. Shu yo'l bilan korxonalarni eksport salohiyati oshib borishi, mamlakatdagi milliy daromadga hissasi ortib boradi. Ularni zamonaviy va ilg'or texnika-texnologiyalar bilan ta'minlashga imkoniyatlar berilishi ham mamlakatdagi eksport bilan shug'ullanuvchi korxonalarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimov A, Ahmedov I. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T. 2004.
2. Xankeldiyeva G.SH, Muminova E.A, Mirzayev A.T, Asraqulov A.S Global iqtisodiy rivojlanish (darslik) 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Tashqi Iqtisodiy Faoliyati to'g'risidagi qonuni
4. http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=67345.
5. Rahmatullayeva F.M Tashqi iqtisodiy faoliyat va raqobat menejmenti.